

MIS KANDAKORLIK SAN'ATI

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi katta ilmiy hodimi

Valiyeva Hadiyaxon

Badiiy metall kolleksiyasi asosan qurollar, uy-ro'zg'or buyumlari va safar anjomlari, mis va bronzadan yasalgan turli idishlar, o'yma naqsh bilan bezatilgan zargarlik buyumlari orqali taqdim etilgan.

Ularning ba'zilari to'g'ridan-to'g'ri hunarmandlarning o'zlaridan sotib olingan, ammo kolleksiyaning aksariyati muzey xodimlarining mahalliy aholi xonadonlariga borib, ulardan buyumlarni sotib olish uchun uyushtirgan ekspeditsiyalari natijasida jamlangan. Buyumlarning aksariyati XVIII asrdan to XX asr boshlariga qadar bo'lgan davrlarga tegishli. Bu davrda Buxoro, Xiva, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent va Qo'qon O'zbekiston hududidagi kandakorlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning asosiy markazlari hisoblangan. Naqshlarni qo'llash usullari hamma joyda deyarli bir xil bo'lgan va asosan zarb qilish, o'ymakor naqsh va panjarasimon o'yma naqsh turlariga bo'lingan. Ko'pincha, serhasham bezak berilgan metall buyumlar badavlat shaharliklar uchun uylarning ichki bezaklari sifatida xizmat qilgan va o'z o'rnida uy egasining davlatmandlik darajasini ko'rsatgan.

Mis kandakorligi buyumlari asosan uchta ixtisoslikdagi ustalar tomonidan ishlab chiqarilgan: miskarlar qoliplarni tayyorlashgan, mis buyumlarga qalay yugurtirib oqartirishgan, degrezlar idishlar va qoliplarning qismlarini (idishlarning tutqichlari, qopqoqdagi qubbalar, jo'mraklar uchlari, oshiq-moshiqlar va boshqalar) quyib tayyorlashgan, kandakor ustalar esa buyumlarni nozik naqshinkor va o'yma naqshlar bilan bezatishgan.

XIX asr – XX asrning boshlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'zining maishiy hayotdagi vazifalari va shakllariga ko'ra juda xilma-xildir. Nafis naqshlar





bilan bezatilgan suv va choy uchun mo'ljallangan bejirim ko'zalar, xilma-xil nomlar bilan ataladigan, tashqi ko'rinishi va shakli bilan alohida ajralib turadigan, suv, sut, mevali sharbatlar va ichimliklar, shirinliklar va mevalar uchun mo'ljallangan kosa shaklidagi turli idishlar, kir yuvish uchun tog'oralar va tupdonlar, dumaloq va to'rtburchak patnislar, kulchalarni isitish uchun tagliklar, taomlar ustini yopadigan qopqoqlar, finjonlar va cho'michlar juda keng ommalashgan. Ovda qo'llaniladigan nog'oralar, savdogarlarning tushumlarini saqlaydigan puldonlar, qimmatbaho ziynat buyumlari uchun qutilar, qalamdonlar, chekish moslamalari va turli tutatqilar uchun moslamalar, chiroqlar va qandilli shamdonlar o'zlarining shakllari va naqshinkor bezaklari bilan ajralib turadi. Miniaturali pardoz-andoz va attorlik buyumlarini bezashda filigran (zargarlik buyumlariga juda nafis bezak berish) texnikasidan foydalanish talab etiladi. Kandakorlik — amaliy san'at turi; o'ymakorlikning metall buyumlarni o'yib, chizib naqsh, tasvir ishlash sohasi. Buyumlarni bezashda kandakori (o'yib, kesib), qolipaki (qolip yordamida), simkori (simdan foydalanib), shuningdek, buyumlarning qismlari (qopqoq, dasta va b.) va ikki qavatli buyumlarni bezashda shabaka (panjarali qilib ishlash) usullari qo'llanadi, an'anaviy usimliksimon (islamiy) va handasiy (girihi) naqshlardan mujassamotlar yaratiladi. Naqsh yoki tasvir zamini po'lat qalam (asbob)lar yordamida chuqur yoki sayoz o'yiladi, zamin sayoz o'yilganda rangli loklar bilan bo'yaladi, pardozlanadi, chekma, uyma, katak, parallel kesma chiziqlar bilan jilo beriladi. 1930-yil lardan metall sirtiga kimyoviy moddalar ta'sir ettirib naqsh, tasvir yaratish usuli ham (ilk bor Toshkent badiiy o'quv i.ch. kombinatida) qo'llanadi. Arxeologik topilmalar (bronza qozon, mil. av. 6—5-asrlar, Farg'ona vodiysi, O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida; Amudaryo xazinasini tarkibiga kirgan metall buyumlar, mil. av. 4—2-asrlar, Britaniya muzeyida; Samarqand Registonidan topilgan metall buyumlarning yirik xazinasini va b.) K. badiiy hunarmandlik turi sifatida O'rta Osiyo (jumladan, O'zbekiston hududi)da juda qadimdan mavjudligini ko'rsatadi. Dastlab buyumlarga afsonalardagi qahramonlar tasviri ishlangan, arablar istilosidan keyin tasvirlar o'rnini handasiy naqshlar, bezak darajasiga yetkazib



ishlangan arab yozuv (bayt)lari egallagan. Temuriylar davrida yangi usullarning yuzaga kelishi oqibatida K. san'ati yanada rivojlandi, bezak turlari ko'paydi. 18—19-asrlarda Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlarda K. markazlari bo'lgan. 19-asrning so'nggi choragida K. maqsulotlariga bo'lgan talabning ortishi ularni sanoatda qolip yordamida kup nusxada i.ch.ta olib keldi. Bu, o'z navbatida, K.ning ma'lum darajada susayishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonda 19-asr oxiriga kelib usulining o'ziga xosligi, zarbning chuqur yoki sayozligi, naqshlar yuzasi va zaminini bezashda qo'llanadigan usullariga ko'ra, bir-biridan farqlanadigan K.ning bir necha (Farg'ona, Toshkent, Buxoro, QarshiShahrisabz, Samarqand, Xorazm) maktablari shakllandi. Farg'ona K. maktabi ustalari (Abdufozil Otaullayev, Mulla Siddiq Otaullayev va boshqalar) buyumlarni bezashda ko'rkam bog'lar, chamanzorlarni eslatuvchi nafis naqshlarni sayoz, tor zaminli qilib ishlaganlar, o'ziga xos tarzda pardozlaganlar, ba'zan mujassamotga me'moriy tasvirlar ham kiritilgan. Toshkent K. maktabi vakillari yirik buyumlarga an'anaviy naqshlarni yirikroq qilib ishlaganlar, bezakda sodda naqshlar (mehrob, zanjira, zuluk, olmagul va b.)ni qo'llaganlar. Buxoro K. maktabi vakillari (Hakim Buxoriy, Do'stmuhammad Rizo va b.) buyumlarni o'rtacha hajmda nafis, baytlarni kup qo'llagan holda bezaganlar. Qarshi — Shahrisabz K. maktabiga Buxoro K. maktabining ta'siri kuchli bo'lgan, ustalar buyumlarni, shuningdek, shisha, feruza ko'zlar qadab bezaganlar, naqsh zamini rangli loklar bilan bo'yalgan, ba'zan buyum sirti qolipaki usulida ishlangan bezaklar bilan qoplangan. Samarqand K. maktabi vakillari buyumlarni shabaka usulida (panjarasimon) bezaganlar, naqshda shobarg keng qo'llangan, naqsh zamini chekma gullar bilan pardozlangan. Xorazm K. maktabi ustalari (Xo'janiyoz Sayitniyozov, Matyoqub Jonibekov, B. Yoqubov va b.) naqqoshlar tayyorlagan axtalar yordamida murakkab buyumlarni handasiy va islimiy naqshlar bilan to'ldirib bezaganlar. Bu maktablar o'zaro aloqada bo'lgan, ayrim usta kandakorlar o'z ijodlarida turli maktab usullarini qo'llagan. 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida yasalgan K. buyumlari shakli xilma-xil (choydish, mis ko'za,

kosa, lagan, la'li, kashkul, oftoba, qumg'on va b.) tayyorlangan hamda nihoyatda nozik va bejirim naqshlangan. 20-asr 20-yillaridan ustalar artellarga uyushtirildi. K. sexlarida ijod qila boshlagan ustalar turli maktablarning an'analari, usullaridan foydalanib badiiy buyumlar (choydish, mis kuza, mis lagan, satil, oftoba, dastsho'y, qumg'on va b.) tayyorladi. 60-yillar boshlarida artellar tugatilib mahalliy sanoat korxonalari, mahalliy xizmat kombinatlarida (Qo'qonda L. Fozilov, Buxoroda S. Hamidov, M. Mukarramov, A. Hamidov, Xivada Yo. Bekjonov boshchiligida) K. buyumlari ishlab chiqarildi. Toshkent, Buxoro, Qo'qon, Xiva kabi shaharlarda O'zbekiston Badiiyot akademiyasi K. ustaxonalarida keksa kandakorlar yoshlarga (ustoz-shogird usulida) o'z qunarlarini o'rgatmoqda. Buxoroda K. maktabi ishlab turibdi (yana qarang Buxoro kandakorlik maktabi).

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekidtin milliy ensiklopediyasi 5-ton
2. O'zbekiston hunarmandchiligi va amaliy san'at kitobi
3. Internet sahifalari
4. Архив.уз
5. www.tdpu.uz www.kasu.uz